



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
XORIJY FILOLOGIYA FAKULTETI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ФАКУЛЬТЕТ ЗАРУБЕЖНОЙ ФИЛОЛОГИИ**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
URGENCH STATE UNIVERSITY
FACULTY OF FOREIGN PHILOLOGY**

**Zamonaviy va chog‘ishtirma tilshunoslik,
qiyosiy adabiyotshunoslik,
tarjimashunoslik masalalari**

**СОВРЕМЕННАЯ И СРАВНИТЕЛЬНАЯ ЛИНГВИСТИКА,
СРАВНИТЕЛЬНОЕ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ,
ВОПРОСЫ ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЯ**

**Issues of Modern and Contrastive Linguistics,
Comparative Literature and Translation**

Xalqaro ilmiy–amaliy anjuman materiallari

Материалы международной научно–практической конференции

Proceedings of international scientific–practical conference

2023 yil 19–20 may

Urganch – 2023

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MAQOLLARIDA “DO‘STLIK” KONSEPTINING SALBIY MA’NO SHAKLLARI

Karimova Zuxra Ulugbekovna
Urganch davlat universiteti

Annotation. This article gives an overview about proverbs with the concept of friendship in the Uzbek and English languages. The negative shades of the concept in proverbs are discussed with the examples in both languages.

Ma’lumki, maqollar insonlarning shaxsiy va ijtimoiy munosa–batlar hususida tajriba va kuzatishlarini umumlashtirib, xulosalab, tayyor ifoda bilan izohlash imkonini beradi³⁰. Maqollarni o‘rganar ekanmiz, garchi maqollar xalq tajribasi asosida shakllansada, ularning mantiqiy falsafiy tizimni tashkil qilmasligini, ya’ni, doimiy hamma vaziyatlarga mos kelmasligini ko‘ramiz. Maqollar ma’lum bir vaziyat, holatdagi tajriba asosida shakllangan bo‘lib, aynan shunga o‘xshash vaziyatda samaradordir. Zero, maqollar ma’lum bir vaziyatga mos qo‘llanilganda ular muloqotning samarali vositasi bo‘la oladi. Quyida do‘stlik konseptining ingliz va o‘zbek xalqi qadriyatidagi maqollarda salbiy ma’no qirralarini ko‘rib chiqamiz.

Ingliz va o‘zbek xalqlari qadriyatlaridagi maqollarning aksariyatida do‘stlik puldan, moddiy manfaatdan ustun qo‘yilgan. Ammo, ikkala xalq madaniyatida mavzuning boshqa tarafi bo‘lgan kambag‘allik, ya’ni pulsizlik shaxsiy munosabatlarda muammolarni keltirib chiqarishi g‘oyasi bir qator maqollarda uchraydi. Masalan, ingliz tilidagi *Poverty parts friends* maqolida kambag‘allik do‘stlarni ajratadi g‘oyasi yotadi. *No longer foster, no longer friend*. (Homiy emas, do‘st emas) maqolida moddiy foydasi bo‘lmagan insondan do‘st bo‘lmaydi g‘oyasi keltirilgan. *Wealth brings many friends, but a poor man’s friend deserts him* maqoli ham boylik ko‘p do‘st olib keladi, ammo kambag‘alning do‘stlari uni tashlab ketishini ta’kidlaydi. Pul va moddiy manfaatgo‘ylik insonlar orasidagi aloqalarni bog‘lovchi asosiy vositaligi ingliz tilidagi quyidagi maqollarda yoritilgan: *The Purse–strings are the most common ties of friendship* (Hamyon bog‘lag‘ichi do‘stlikning eng ko‘p uchraydigan rishrasi); *Money purses holds friends together*. (Pul to‘la hamyon do‘stlarni birga ushlab turadi). *He that has a full purse never wanted a friend* maqolida hamyoni to‘la bo‘lgan kishi hech qachon do‘stga zor bo‘lmasligi ochib berilgan. *Wealth makes many friends* (Boylik ko‘p do‘st orttiradi.); *Rich folk have many friends* (Boy odamning

³⁰ Wolfgang Mieder, *Proverbs: a handbook*. The USA. Greenwood Press. 2004. P 1(304).

do'sti ko'p bo'ladi.) maqollarida ham do'stlarni ko'paytiruvchi asosiy vosita pul va boylik qilib ko'rsatilgan. Moddiy manfaat uchun soxta do'st ko'p bo'lganligi uchun boy odam asl do'stni soxta do'stdan ajrata olishiyam qiyin bo'ladi: *The rich knows not who is his friend* (Boy do'sti kimligini bilmaydi). *A penny in my purse will bid me drink when all the friends I have will not* (Do'stlarim taklif qilmagan qadahni hamyonimdagi bir tiyin berar) maqolida pul do'stlikdan ustun qo'yilgan. O'zbek tilidagi maqollarda ham *Do'stlik — barcha boylikdan afzal* g'oyasiga qarama qarshi mavzu yoritilgan maqollar mavjud:

Puling bo'lsa, hamma quling,
*Tog'—u tosh ham berar yo'ling*³¹;
Moling borida — ana do'st.
Moling yo'g'ida — qani do'st;
Ol—olchining do'sti ko'p,
*Ber—berchining do'sti yo'q*³²;
*Badavlatlik bo'lgan so'ng, begonalar do'st bo'lar*³³;
Bor yarashtiradi, yo'q talashtiradi;
Davlat kelsa, yo'l ochar,

Davlat ketsa, do'st qochar maqollarida do'stlarni ko'paytiruvchi asosiy g'oya pul va boylik qilib ko'rsatilgan. *Noninga sherik jo'ralar bor, Joninga sherik jo'ralar bor* maqolida moddiy manfaat yo'lidagi va haqiqiy do'stlar farqlanadi.

Do'st konseptining salbiy ma'no ifodalari yana bir qator maqol mavzularida uchraydi. Do'stlarning dushmanlardan ko'ra havfliroq bo'lishi mumkinligi *God defend me from my friends and I will keep from my enemies*³⁴ maqolida yoritilgan. Maqol eramizdan avvalgi I asrda yashagan Rim shoiri Publiy Ovidiya Nazon qalamiga mansub bo'lib, ingliz tilida XIV asr so'ngida keng qo'llanila boshlagan. Maqolning *Save us from our friends*³⁵ (Do'stlarimizdan o'zing asra) shakli ham mavjud. Maqol g'oyasi o'zbek tilida *Do'sti nodondan dushmani dono yaxshi*;³⁶ *Bostirmadan ayvon yaxshi, Yomon do'stdan hayvon yaxshi; Yaxshi do'sting kuldirar, Yomon do'sting kuydirar*³⁷; *Ablah do'st dushmandan yomon, Ne hiyla bilsa, ishlatar oson*³⁸ maqollarida ifodalangan.

Friends must part maqoli do'stlik qanchalik mustahkam bo'lmasin, do'stlar baribir ajralishlariga to'g'ri keladi ma'nosini ifodalagan ingliz xalqi

³¹ Mirzayev T., Musoqov A., Sarimsoqov B., O'zbek xalq maqollari, "Sharq", 2005. 213-b.

³² Mirzayev T., Musoqov A., Sarimsoqov B., Ko'rsatilgan manbaa. 87-b.

³³ Mirzayev T., Musoqov A., Sarimsoqov B., Ko'rsatilgan manbaa. 251-b.

³⁴ Apperson G.L., The Wordsworth dictionary of proverbs. —Hertford-London: Wordsworth Editions Ltd., 2006. — 656p.

³⁵ Speakers J. The Oxford dictionary of proverbs, 5th edition. —Oxford: Oxford University press, 2008. — 388 p.

³⁶ Mirzayev T., Musoqov A., Sarimsoqov B., Ko'rsatilgan manbaa. 49-b.

³⁷ Mirzayev T., Musoqov A., Sarimsoqov B., O'zbek xalq maqollari, "Sharq", 2005. 50-b.

³⁸ Mirzayev T., Musoqov A., Sarimsoqov B., Ko'rsatilgan manbaa. 47-b.

qadriyatidagi fikrlar qarama qarshiligiga asoslanadi³⁹. O'zbek xalqi qariyatida garchi bunday g'oya mavjud bo'lmasada *O'rtada burun bo'lmasa, Ko'z ko'zni o'yar*⁴⁰ maqoli mavzuni qisman yoritadi.

Musiqiy asboblarning mavzusi yordamida do'stlik munosabatlari skripkaga tortilgan torga o'xshatilgan: ko'proq tortib yuborilsa, utilib ketishi mumkin: *Friends are like fiddle-strings, they should not be screwed too tight*⁴¹. Shu mavzuni davom qildiruvchi bir qator maqollar mavjud:

Little intermeddling makes good friends (Bir-birovni ishiga kamroq aralashish do'stlikni mustahkamlaydi.); *A hedge between keeps friend-ship green*⁴² (Oradagi buta devor do'stlikni kuchaytiradi.); *Short visits make long friends* (Qisqa tashriflar uzoq do'stlik yaratadi.) Maqol mavzusi o'zbek tilidagi *O'tni kovlasang, o'char, Do'stni kavlasang, kechar; O'rtada burun bo'lmasa, ko'z ko'zni o'yar* maqollarida yoritilgan.

Broken friendship may be soldered but it will never be sound (Sin-gan do'stlikni yamash mumkin, ammo endi gardsiz bo'lmaydi) maqolida jiddiy kelishmovchilikdan so'ng qayta tiklangan do'stlik mustahkam bo'lmaydi g'oyasi ochib berilgan.

Ingliz tilidagi *It's better to lose a jest than a friend* (do'stni yo'qotgandan ko'ra hazilni qo'ygan afzal); *Many a friend was lost through a joke, but none was ever gained* (Hazil bilan ko'p do'st yo'qotilgan, ammo hech ham topilmagan) maqollarida do'stlar bilan munosabatda tilga ehtiyotkor bo'lish kerakligi nazarda tutilgan. O'zbek tilida ham xuddi shu mavzuni yorituvchi maqollar mavjud:

Hazil, hazilning tagi zil;

Do'stingga hazil qilma, Oqibati urushdir;

Do'stingga hazil qilma oqibati urushdir,

Dushmaningning maqsadi ahvolingga kulishdir.

Ma'lumki, haqiqiy do'stlar o'zaro suhbatda ham bir birini hurmatini joyiga qo'yadi. Asl do'st hech qachon do'stiga haqarotomuz so'z aytmaydi mavzusi ingliz tilidagi *A good friend never offends* maqolida uchraydi. O'zbek tilida ushbu g'oya

Do'st orttiraman desang, shirin suhbat qil;

Dushman orttiraman desang, chaqirtikan bo'l maqollarida yoritilgan. Ikkala xalq madaniyatida ham qadrlanadigan kamgaplilik hususiyati do'stlar orasida ham o'z qadriga ega ekanligi ingliz tilidagi quyidagi maqolda o'z aksini topadi: *Forbearance of conversation dissolves friendship* (Suhbatga

³⁹ Лызлов А. И. Аксиологическая динамика английской фразеологической системы. Диссертация док. филол. наук. Москва, 2010. С. 395

⁴⁰ Mirzayev T., Musoqov A., Sarimsoqov B., Ko'rsatilgan manbaa. 50-b.

⁴¹ Apperson G.L., The Wordsworth dictionary of proverbs. –Hertford-London: Wordsworth Editions Ltd., 2006. – 656p.

⁴² Karomatova M.K., H.S. Karomatov. Proverbs. Maqollar. Пословицыю – Toshkent. "Mehnat", 2000

zo'raki chidash do'stlikni buzadi.) O'zbek xalqi qadriyatida shu mavzuni *Ko'p gap eshakka yuk* maqoli qisman ochib beradi.

Maqollarda "do'st" va "dushman" qarama qarshi tushunchalari "Alloh" va "shayton" tushunchalari bilan birga qo'llanilgan. Zero, do'stlar Alloh tuhfasi bo'lsa, dushman shayton elchilaridir g'oyasi shakllangan: *God has few friends, the devil has many* (Alloh bergan do'st sanoqli bo'ladi, shaytonniki esa ko'p); *God send me a friend and he will tell me of my faults, if not, send me an enemy and he will*⁴³ (Rabbim, menga kamchiliklarimni ayta oladigan do'st yubor, yoki, dushman yubor, u aytadi) maqoli do'stlik va dushmanlik orasidagi chegarani mavhumlashtiruvchi ularning ikki tomonlama tabiatini nazarda tutgan. *Save man from his friends and leave him to struggle with his enemies* dushman bilan kurasha olish uchun nomaqbul do'stlardan voz kechish tarbiyaviy g'oyasini anglatadi⁴⁴.

*A friend as far as conscience permits*⁴⁵ maqolida kishining vijdoni do'stlikda turli nomaqbul ishlardan saqlashi g'oyasi yoritilgan. Ba'zida samimiy bo'lmagan munosabatlar yaratishga ya'ni do'stlikni soxta saqlab turilishi zarurati g'oyasiga yuqoridagi maqol asos bo'ladi. *If you have to live near the river it is best to be friends with the crocodile*⁴⁶ maqolida timsoh kuchli va havfli qo'shning timsoli sifatida berilgan. Bu o'rinda inson xohishidan qat'iy nazar u bilan munosabatni yaxshi tutishi lozim bo'ladi. O'zbek xalqi qadriyatida ushbu mavzu quyidagi maqolda qisman o'z aksini topgan:

*Arpa-bug'doy bir kunningga yaraydi,
Sodiq do'sting o'lguningcha yaraydi.*

Do'stlik konseptini ifodalovchi maqollardagi salbiy ma'no qirralarini ingliz va o'zbek xalqi qadriyatidagi inikosi sifatida o'rganar ekanmiz, har bir maqol o'z vaziyati, o'z o'rni va ma'nosiga eka ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz. Ikkala xalq madaniyatidagi maqollarda ushbu mavzu yoritilishida asosan o'xshash hususiyatlar aniqlangan bo'lsada, xalqlarning o'zigagina xos bo'lgan hususiyatlari ham mavjudligi ham yaqqol ko'rinib turibdi.

TILSHUNOSLIKDA QARINDOSHLIK TERMINLARI TUSHUNCHASINING DEFINITSİYALARI BILAN BOG'LIQ MASALALAR

*Nurullayeva Kumushbibi Qudrat qizi
Urganch davlat universiteti*

⁴³ Apperson G.L., The Wordsworth dictionary of proverbs. –Hertford-London: Wordsworth Editions Ltd., 2006. – 656 p.

⁴⁴ Лызлов А. И. Аксиологическая динамика английской фразеологической системы. Диссертация док. филол. наук. Москва, 2010. – С. 395.

⁴⁵ Apperson G.L., The Wordsworth dictionary of proverbs. –Hertford-London: Wordsworth Editions Ltd., 2006. – 656 p.

⁴⁶ Speakers J. The Oxford dictionary of proverbs, 5th edition. –Oxford: Oxford University press, 2008. – 388 p

Рузиева З.М., Болтаева Г. Контрастивные различия русского и узбекского языков	78
Matyoqubov H. Ingliz va o'zbek toponimlarining tarkibiy qiyosiga oid ...	84
Karimova Z.U. Ingliz va o'zbek tillari maqollarida “do‘stlik” konseptining salbiy ma’no shakllari	88
Nurullayeva K.Q. Tilshunoslikda qarindoshlik terminlari tushunchasining definitsiyalari bilan bog‘liq masalalar	91
Madraximova S.X. Nemis va o'zbek tillarida kishilar ismlari qo‘llanilgan frazeologizmlarning lisoniy xususiyatlari	95
Polvannazirova S.X. Ingliz-o'zbek tillari doirasida til sathlarini chog‘ishtirma tahlil qilish tarixi va taraqqiyoti	98
Raximova M. Nemis va o'zbek tillari paremiologiyasida hayvonot va o‘simlik nomlarini ishlatilishi va o‘ziga xosligi	101

Zamonaviy lingvistika yo‘nalishlari

Tretyak Y.Y. L’ethos discursif anti–guerre: le cas de la première dame d’Ukraine	105
Berezhna M. Narratives of female characters in the top box office films (1999–2023)	109
Siedakova M. The main strategies in dancesport discourse	115
Begmatov M.B. Ilova konstruktsiyada ikkinchi darajali bo‘laklarning qo‘llanishi	119
Яхшиев А.А. Лион фейхтвангер асарларида фразеологик бирликлар ўзгарувчанлигининг лингвистик таҳлили	122
Бэгматов М., Матякубова Р. Илова қурилмада тема-рематик муносабатларнинг ифодаланиши	127
Xalliyeva G.I., Xoliqov Z.O. Angliyada rumiyshunoslik	129
Mamasoliev I. Ilova konstruktsiya tarkibidagi ilovali elementlarning lingvopragmatik xususiyatlari	133
Ro‘ziyev Y.B., Boboxonova S.X. Nemis tilida hozirgi-kelasi zamon shakllarining paradigmatic va sintagmatic xususiyati	135
Ro‘ziyev Y.B., Abdisharipova M.R. Nemis tilida o‘tgan zamon shakllari transpozitsiyasi	138
Халимова Ф.Р. Когнитив тилшуносликда концептуал майдон ифодаси	143
Jumaniyozov A., Rahimova Sh. Ingliz tilidagi “man” komponentli bahuvrihilar	150
Jumaniyozov Z.O., Sadullayeva S.B. Rasmiy hujjatlar tili va leksik xususiyatlari	155
Jumaniyozov Z.O., Turabayeva M. Nemis tilidagi sof yuridik terminla Urganch davlay universiteti	161